www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Shaxs shakllanishida mahalla, ta’lim tizimi va jamoat tashkilotlarining omillari, ijtimoiy funksiyalari va ahamiyati

Patiyev Xoldor
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi o‘qituvchisi
Qosimov Ismoil
Qumqo‘rg‘on pedagogika kollejio‘qituvchisi

Annatatsiya: Ushbu maqolada shaxs shakllanishida mahalla, ta’lim tizimi va jamoat tashkilotlarining omillari, ijtimoiy funksiyalari va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning ijobiy tomonlari haqida bayon etiladi.

Kalit so‘z: Tajriba, shaxs, jamoat, feminizm, mahalla, ijtimoiy funksiya.

Darhaqiqat, har bir jamiyat tarixida shunday burilish davrlari bo‘ladiki, unda taraqqiyot yo‘lidaga borayotgan xalqlar taqdiri uchun dorilamon bo‘lgan va muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillar hamda dolzarb vazifalarni aniqlash hayotiy ehtiyojga aylanadi. Tajriba aynan ana shunday davrlarda ushbu ehtiyojni zukkolik bilan anglaydigan va davr talablariga voqealar rivojini oldindan ko‘rib, javob bera oladigan yo‘lboshchilar etakchiligidagi xalqlargina ko‘zlagan maqsadlariga etishi mumkinligidan dalolat beradi. Bu, o‘z navbatida, mazkur xalqning butun dunyoda yana bir bor e’tirof etilishiga sabab bo‘ladi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo‘lib qo‘shiladi, jahon xalqlarining taraqqiyot yo‘llari va rivojlanish bosqichlarini belgilab olishida muayyan tajribaga aylanadi.

O‘zbekistonda ham Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi va unga dono rahbar I.Karimov rahbarlik qilishi ana shunday tarixiy burilish davri bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda Birinchi Prezident I.Karimov rahnamoligida ozodlikka erishgan xalqimizning milliy salohiyatini yuksak bosqichlarga ko‘tarish, jamiyatning barcha sohalarida tub islohatlar va ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish maqsadida qonun ustuvor bo‘lgan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Bunda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab belgilab olingan butun dunyo e’tirof etayotgan taraqqiyot modeli va rivojlanish tamoyillarining samarasi yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi[1].

Enlilikda eski mustabid o‘tmishning og‘ir yuki va merosi hayotimizda barham topib, odamlarmiz bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda ro‘y berayotgan voqealarning mohiyatini yaxshi tushunib etmoqda, ularning milliy manfaatlarimizga qay darajada javob berayotgani yoki bermayotganini aniq tasavvur etayotirlar[2].

Albatta, bu kurash jarayonlarda eng katta kuch va suyanch, hal qiluvchi kuch yosh avloddir. Bu- O‘zbekistonda tashkil etilgan, dunyo miqyosida katta qiziqish va havas uyg‘otayotgan mutlaqo yangi o‘quv tizimida yuksak ta’lim-tarbiya olayotgan, eski asoratlardan, qarashlardan uzoq bo‘lgan, zamonaviy kasb-hunarlarni o‘zlashtirib, mustaqil fikrlaydigan, ertangi kunga intilayotgan avloddir.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz Birinchi rahbarining tashabbusi bilan yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning hayotimizning boshqa sohalari bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan holda, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan strategiyasi belgilab olindi.

Shu maqsadda 1991 yil 20 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unda yoshlarga oid davlat siyosatining maqsad va vazifalari qat`iy belgilab qo‘yildi.

---

[1] Abdullaeva Sh.A., Ro‘zieva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Universitet, 2019. – 288 b.

[2] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, birinchidan, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi ma`lumoti va e’tiqodidan qat`i nazar, yoshlar to‘g‘risida g‘amho‘rlik qilish, ikkinchidan, yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, uchinchidan, yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish, to‘rtinchidan, jamiyatni rivojlantirishda, ayniqsa, respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi, beshinchidan, huquq va burchlarning, erkinlik va fuqarolik mas`uliyatining birligi qoidalariga asoslanadi.

Ma`lumki, Prezident Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bu keng ko‘lamli noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarini joriy etish, aholining barcha qatlamlari o‘rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, elu yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas`uliyat va daxldorlik tuyg‘usini oshirish, aniq tizim asosida samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotir[3].

Harakatlar strategiyasi odamlarni ochiqlik, oshkoralik, shaffoflik muhitida yashash va ishlashga da`vat etmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev davlat rahbari sifatida dastlabki nutq va ma`ruzalaridayoq “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy bo‘ladi” degan g‘oyalarni o‘rtaga tashladi. Bu g‘oyalar mamlakatimiz konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan “Xalq davlat hokimiyatning birdan-bir manbaidir” degan qoidaga har tomonlama mos bo‘lib, uning mantiqiy rivoji, amaliy natijasini ifoda etadi[4].

O‘zbekiston o‘zaro hurmat, mehr va do‘stlikni hurmat qiladigan, qadrlaydigan mamlakatidir. Harakatlar strategiyasining asosiy nazariy asosi - do‘stlik, tinchlik va hamkorlikni, qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘st va hamkor bo‘lib, umumiy muammolarni hal etishni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi etib belgilanganida namoyondir.

Yangilanish davrida odamlarning orzulari ularning imkoniyatlariga mos bo‘lmoqda. Odamlar davlatga o‘z muammolarining echimini topishga eng ishonchli institut deb qaray boshlashdi. Boshqaruv tizimida insoniy yondashuv ustuvor talabga aylanmoqda. Xalq bilan muloqot tizimli ishlar boshlandi, uyma-uy, xonadonma-xonadon yurib odamlarning muammolarining echish, hamfikrlik va real ko‘mak taklif etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Sohalarning rivojlanishida birinchi marta ma`rifat omiliga tayanish tendintsiyasi amal qila boshladi. Qishloqni rivojlanitirish, uni industyalash tizimi va har bir hududda xizmat sohalarining tashkil etish siyosati keng ko‘lamda tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Odamlarda o‘z hayotini obod qila olishga bo‘lgan ishtiyoq, xalqimiz va Vatan istiqboliga ishonch, o‘z iqboliga Vatan ravnaqi bilan bog‘liq xolda ko‘rish harakati kuchaydi.

Shunday qilib, O‘zbekiston taraqqiyotini mazmunan tamomila yangi bosqichga - Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar asosida izchil amalga oshirishga kirishildi.

---

[3] Mirziyoev Sh.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2018. 1-tom, 146-b.

[4] Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -592 bet.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Yangi bosqichda yoshlar masalasiga, ularning tarbiyasiga bo‘lgan talabchanlik kuchaydi, ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun kafolatlangan bandlikni ta`minlash, ularni bunyodkorlik ishlariga faol jalb etish, ijtimoiy faollashtirish siyosati yuritilmoqda.

Shunday qilib, yangi bosqichda yoshlarga lid davlat siyosati o‘ziga xos tarzda takomillashtirildi.

Yoshlarning hayotiy muammolariga yanada ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Ularga mos bo‘lgan zamonaviy ish o‘rinlari ko‘paytirilmoqda. Ezgu intilish va tashabbuslari, innovatsion g‘oyalari qo‘llab-quvvatlanmoqda. Yosh avlodning ijtimoiy-mashiiy manfaatlarini yaxshilash doimiy ravishda barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy hal qiluvchi vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga doir davlat siyosati va uning amaliy tajribalari jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Mamlakatimiz tomonidan bu borada ilgari surilayotgan tashabbuslar, jumladan, BMTning yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a`zo davlatlar rahbarlarining Yoshlarga murojaati va uni amalga oshirish bo‘yicha Harakatlar dasturini qabul qilish va amalga oshirish borasidagi O‘zbekiston takliflari xalqaro miqyosida qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Xalqimizga xos bag‘rikenglik, kechirimlilik va olijanoblik fazilatlaridan kelib chiqib, bilib-bilmay jinoyatga qo‘l urgan, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan, o‘z qilmishidan chin dildan pushaymon bo‘lgan yoshlarni yangi va tinch hayotga qaytarishga yurtimizda katta e’tibor qaratilmoqda.

Ayni vaqtda O‘zbekiston yoshlarining zamon bilan hamnafas bo‘lib, dunyoning yaqin va olis mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan samarali muloqot, do‘stlik va hamkorlik munosabatlari o‘rnatilmoqda.

Bugungi kunda jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat`iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishlari yanada kuchaytirilgani sezilmoqda, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligi oshirilmoqda.

Endilikda o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bituruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish ishlari yanda samarali yo‘lga qo‘yildi.

Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lam turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ishlari har qachongidan ham yahshilanmoqda. Endilikda yoshlarimiz xorijlik tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo‘lmoqdadir. O‘zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasi tuzilgani, Markaziy Osiyo yoshlari forumi o‘tkazilgani bu sohadagi ishlarni samarali tashkil etishga yordam bermoqda.

Vatanparvar, fuqarolik tuyg‘usi mustahkam, bag‘rikeng, qonunlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, zararli ta`sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga qat`iy ishonchli yoshlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning ko‘lami naqadar kengligini har bir vatandoshimiz ko‘rib, xis etib turibdi. Buni xorijlik xolis kishilar ham tan olmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik rivojlanmoqda.

Bugungi globallashguv zamonida yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun misli ko‘rilmagan darajada kurash bormoqda. Bunday hatarning ta`sirini, avvalo, axborot sohasida kuzatish mumkin. Ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan yoshlar bu axborotlarni real haqiqat sifatida qabul qilishi, yolg‘on va uydirma gaplarga aldanib qolishi mumkin. Shu tariqa ularning hayotida arzimagan bir axborot tufayli butunlay noma`qul tomonga burilib ketishi mumkin.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarning qalbi va ongida axborot immunitetini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday immunitetni shakllantirishda oila, mahalla va maktab institutlarining ahamiyati beqiyosdir. Boshqacha aytganda, yosh avlod vakillari bolalikdan boshlaboq nima foyda-yu nima zararli ekanligini yaxshi anglab olishi lozim.

“Birinchi vazifa biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma`rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”, deydi Prezident Sh.Mirziyoev[5].

Yoshlarni yot g‘oyalardan asrashda xalqimizning oilaparvarlik ruhiga rahna soluvchi, oilani qadrsizlantirishga qaratilgan qarashlar ham mavjudligini va bu g‘oyalar turli yo‘llar bilan targ‘ib etilayotganini ham unutmasligimiz zarur. Taniqli olim va jurnalist P.J.Byukenen o‘zining “G‘arbning o‘limi” asarida o‘tgan asrning so‘nggi choragi va XXI asrning boshlarida G‘arb jamiyati hayotida yaqqol namoyon bo‘layotgan xatarli jarayonlar, xususan, oila, din va axloqning emirilayotgani, individualist mayl-ehtiroslar hamda turli buzg‘unchi g‘oyalarning kuchayib borayotganini tahlil etgan. Byukenenning yozishicha, hukmronlikni qo‘lga olgan ommaviy madaniyat kechayu kunduz azaliy nasroniy qadriyatlarni kamsitib, hatto ayollarning eri va bolalari bo‘lishi tabiiy ehtiyoj ekani haqidagi tasavvurlar ustidan kulib keldi. Bugungi kunda jamiyatda ayolni onalik vazifasidan butkul mahrum etishga intilayotgan kuchlar paydo bo‘ldi[6].

Yaqinda «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda mazkur organlarga mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish borasidagi zarur vakolat va imtiyozlar berildi. Demak, shundankelib chiqib, avvalo yoshlarda tadbirkorlikka oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish lozim. Buning uchun mutaxassislarni jalb etgan holda seminar va treninglar tashkil etilsa, yigit-qizlarimiz o‘rtasida bu sohaga bo‘lgan qiziqish ortardi.

Qonunlar illatlarga barham berib, yaxshilikka yo‘l ochadi. Shuning uchun farzandlarimizga qonunlarga hurmat ruhini singdirishimiz kerak. Bu erda gap ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish haqida ketmoqda. Bunda adliya organlari va muassasalari xodimlarining imkoniyatidan unumli foydalanish zarur.

Pirovard maqsadimiz komil insonni tarbiyalash ekan, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligini yanada rivojlantirish nafaqat ushbu institutlar, balki jamoatchilik vakillari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faolligiga ham bog‘liqligini aslo unutmasligimiz kerak.

Bunda o‘tgan asrning boshlarida shakllangan va bugungi kunga kelib g‘oyat kuchli ijtimoiy harakatga aylangan feminizmning “xizmati” kattadir. 1973 yilda Nensi Lemani va Xelen Sallingerlar tomonidan feminestik harakatining “Feminizm deklaratsiyasi” deb nomlangan yangi manifestie’lon qilindi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: “Erkaklar nikohni o‘z manfaati uchungina o‘ylab topgan, u qonun bilan kafolatlangan ayollarni boshqarish usulidir. Biz uni yo‘q qilib yuborishimiz darkor. Ayolni ozod etishning asosiy sharti-nikoh institutining yemirilishidir. Shunday ekan, bizayollarni erlaridan ajralishlarga, erkaklar bilan har qanday munosabatlarni uzishga da`vat etamiz. Bunday g‘oyalar ta`sirida million-million amerikalik ayollar oila qurish va bola tug‘ishdan voz kechmoqda, barcha dinlarda qoralangan oilaning noan`anaviy shakllari paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda, o‘zbekistonliklar nazarida esa oila mehr qo‘rg‘onidir. Bizdagi oilaparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari fikrlash bilan fikrlashning farqiga borishga, inson, eng avvalo, o‘zining odamlarga muomalasi, jamiyatga naf keltira olishi tufayli qadrli bo‘lishidan manfaatdir ekanligini asrlar mobayinda isbotlab kelmoqda.

---

[5] Mirziyoev Sh.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2018. 1-tom, 146-b.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil, 28 dekabr. 28.12.2018. 17418.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Mustaqilligimiz yangi bosqichga ko‘tarilgan davrda, oilaga, ayniqsa, ayollarning oila qurishiga e’tibor sohasida xalqimizning ana shu ezgu g‘oyalari va an`analarga tayanib ish ko‘rilmoqda. Yosh oilalar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda, ularning uy-joy sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikka hissa qo‘shishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajralmoqda.

Bugungi kunga kelib farzand tarbiyasida oilaning nufuzi oshdi, oilada bolalarning sog‘lom, barkamol o‘sishini ta`minlash bo‘yicha hukumat tomonidan e’tibor kuchaytirildi, bu sohada qator qaror va farmonyishlar e’lon qilindi. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, maktabgacha ta’lim mamlakatda ta’lim tizimining boshlang‘ich bosqichi etib belgilangani, maktabgacha ta’lim muassasalari qurilish ko‘payib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlanayotgani, ularga tobora ko‘proq bolalarni jalb qilish ta`minlanayotgani bundan dalolatdir.

Shu bilan birga, bugungi kunda yoshlar ta’lim-tarbiyasida oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik hamkorligi sezilarli darajada yaxshilanib bormoqda. Bunda oila bilan bir qatorda, ta’lim muassasalari va mahallachilikning rivojlantirilayotgani, ularning faoliyatini har tomonlama yaxshilashga e’tibor berilayotgani asos bo‘lmoqda.

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, sog‘lom hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan masala hisoblanadi”, deydi Prezident Sh.Mirziyoev[7].

“Hammamizni tarbiyalagan, voyaga etkazgan shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq”, deydi hurmatli Yurtboshimiz Sh.Mirziyoev[8].

Darhaqiqat, ishonch - ulug‘ tuyg‘u. Ishonch-bu odamlarning dili va qalbini tozalovchi katta kuchdir. Ishonchning asosiy mazmunida halollik, adolat, sof vijdonlilik, poklik, so‘z bilan ish birligi kabi axloq-odob fazilatlari o‘z ifodasini topgan. Ishonchning muhim shartlari-odamlar mehrini qozonish, marosim va ma`rakalarda qatnashish, keksalarga yordam va tasalli berish, nogiron va hastalarning holidan xabar olish, doimo insonlar bilan munosabatda bo‘lish va boshqa shu kabilardir. Ishonchga erishish ezgu fazilatlar tufaylidir. Chunki qallob, firibgarlarga hech kim ishonmaydi. Ishonchning kushandasi aldamchilik. Odamlar senga ishonmas ekan, bu-baxtsizlik Alisher Navoiyga butun xalq ishonardi. Uning hurmati ham, buyukligi ham, baxti ham shunda edi[9].

Keyingi paytlarda «Ommaviy madaniyat» niqobi ostida butun dunyoga keng tarqalayotgan ma’naviy va axloqiy buzuqlik yoshlarimizning dunyoqarashiga ham jiddiy xavf solmoqda. Axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm kabi yot va buzg‘unchi g‘oyalarni Internet orqali yoshlar ongiga singdirishga urinish kuchayib bormoqda. Yigit-qizlarimizni ularning ta`siridan asrashimiz kerak. Shu bois mahallalarda bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni atroflicha tahlil qila oladigan mutaxassislarni jalb etgan holda yoshlar uchun o‘quv soatlari tashkil etishimiz kerak. Toki, bunday tadbirlar milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan g‘oya va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib bersin. Bu esa fuqarolarimizning qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, hozir muntazam ravishda mahalladagi ma’naviy muhit monitoringini yanada takomillashtirishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu yo‘l bilan notinch oilalardagi muhitni

[7] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017

[8] Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.-508 b.

[9] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O‘qituvchi, 1992-62 b.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

yaxshilash, farzandlar tarbiyasida ko‘zga tashlanayotgan noxush holatlarning oldini olish mumkin.

Ko‘pincha yigit-qizlarimizning muammolariga, orzu-istaklariga e’tibor bermaymiz. To‘g‘rirog‘i, ularga faqat talab qo‘yamizu, qiziqishlari bilan hisoblashmaymiz. Prezidentimiz ta`biri bilan aytganda, har qaysi ota-ona, murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Farzand tarbiyasiga ana shu oddiy talabdan kelib chiqib yondashsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu maqsadda yoshlar muammolarini o‘rganishga qaratilgan ijtimoiy tadqiqotlar, aniqrog‘i, so‘rovlar o‘tkazishimiz kerak. Tadqiqot yakunlari bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, unda yoshlarning muammolarini echishga, orzularini amalga oshirishga, bandligini ta`minlashga, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etishga qaratilgan vazifalar qamrab olinishi lozim.

O‘zbek xalqi qadim-qadimdan bir-birlariga ishonib kelgan. Ayniqsa, ishonchi bor kishilar elda e’tirozlangan. Uning bir og‘iz so‘zi bilan hal bo‘lmayotgan ishlar ham bitib ketgan. Xalqimiz hayotda to‘g‘riligi bilan hurmat qozongan kishilarga ishonch bilan qaraganlar, uning nomini hamma joyda hurmat bilan tilga olganlar.Tarixdan ma`lumki, vatanini, xalqini sevgan kishilar xalqning ishonchiga sazavor bo‘lganlar. Ular ezgu ishlari, toza xulqi bilan el-yurt manfaati yo‘lida fidoyilik ko‘rsatganlar. O‘zbekistonni mustaqillikka olib chiqqan, mustaqillikni mustahkamlash uchun elim deb, yurtim deb jonkuyarlik ko‘rsatgan birinchi Prezidentimiz I.Karimov xalqimizning chinakam ishonchiga, mehriga sazavor bo‘ldi[10]. Bugungi kunda muhtaram Yurtboshimiz Sh.Mirziyoevga ham xalqimiz shunday katta ishonch bilan qaramoqda[11]. Chunki uning rahnamoligida yurtimizda amalga oshayotgan obodonchilik, faravonlik, tub islohiy o‘zgarishlar, xalqni baxtli-saodatli etish uchun olib borilayotgan ezgu tadbirlar, xalqaro do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro hurmat, yoshlarni barkamol etib tarbiyalash borasidagi sa`y-harakatlar xalqimizda katta ishonch va hurmat paydo qilmoqda.

O‘zbekiston yoshlari bu beqiyos hamho‘rliklardan katta rag‘bat va ilhomga to‘lib, ulkan vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatishga intilmoqdalar. Ular o‘zlarida bor iste’dodlarini namoyon etib, ilmu hunarda, ma’naviy-ma`rifiy jarayonlarda, mehnatda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, fanda, san`atda, madaniyatda, sportda jasarot namunalarini ko‘rsatmoqdalar. Yurtboshiga, bugungi va ertangi baxt-saodatli kunlarga, yurtning buyuk kelajagiga ishonch ularni yangi-yangi zafarli ishlarga otlantirmoqda. Bu ishonch yurtmizning xalqimizning baxtli kunlarida, buyuk o‘zgarishlarda ifoda topmoqda. Bular Yurtboshining nazari tushgan, demak xalqimizning nazari tushgan yoshlardir. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, oila, mahhalla, jamiyat, davlat kabi omillar shaxs ma’naviyatini shakillantirishning asosiy o‘chog‘lari hisoblanadi.

1.Inson avvalo oila bag‘rida unib-o‘sadi, shaxs sifatida shakllanadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida - mahalla-ko‘yda, ta’lim muassasalarida sayqal topadi. Shunday ekan, vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini belgilovchi barkamol avlodni voyaga etkazishdek ulug‘ vazifani oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligisiz hal etib bo‘lmaydi desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

2.Hozir mamlakatimizdagi o‘n mingga yaqin fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida «Oila-mahalla-ta’lim muassasasi» jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, ular ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas`uliyatini kuchaytirish, o‘quvchilarning darslarga qatnashishini o‘rganish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

---

[10] Abdullaeva Sh.A., Ro‘zieva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Universitet, 2019. – 288 b.

[11] Abdullaeva Sh.A. O‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2005. – 320 b.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

3. Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi haqida gap ketganda, mahallaning roli va ta`siri to‘g‘risida to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Bejiz «Mahalla - ham ota, ham ona» deyilmagan. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik kabi xalqimizga xos urf-odat va an`analar aynan mahalla muhitida rivojlangan. Bular esa yosh avlodning ongu tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Demak, farzandlarimiz ta’lim-tarbiyasida mahallaning o‘rnini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

4.Mahallalarda, ta’lim muassasalarida ibratli xonadon vakillari, urush va mehnat faxriylari, yozuvchi va shoirlar ishtirokidagi uchrashuv va davra suhbatlarini muntazam ravishda o‘tkazib turish zarur. Ushbu tadbirlar qanchalik ko‘paysa, ko‘zlagan maqsadlarga tezroq etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.A., Ro‘zieva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. – Toshkent: Universitet, 2019.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2018. 1-tom.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil, 28 dekabr. 28.12.2018. 17418.
5. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O‘qituvchi, 1992.
7. Abdullaeva Sh.A. O‘spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korreksiyalashning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2005.
8. Mamanovich, R. H. "Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management." *Middle European Scientific Bulletin* 18 (2021): 359-362.
9. Hakim, Rasulov. "Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System." *Бюллетень науки и практики* 7.3 (2021): 281-286.
10. Шарафутдинович К.С. (2023). Необходимость интеграции процессов экологического образования и обучения в обеспечении стабильности экотуризма в Узбекистане. Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках , 2 (10), 230–233. Получено с
11. Ismoilov, Najmiddin Boysoatovich (2023). YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA ILM SOHALARI RIVOJLANISHNING YANGI DAVRIDAGI MUHIM ASOSLARI. International scientific journal of Biruni, 2 (1), 81-88.
12. Ikromovich, P. X. (2023). JADID MA’RIFATPARVARCHILIGI SHAKLLANISHIDAGI TARIXIY SHART-SHAROIT VA OBEKTIV ZARURIYAT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 167-179.
13. Рахманкулов, Ф. Р. (2022). МАВЗУ: МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ МАЪНАВИЙ ТАРРАҚИЁТНИНГ ОМИЛИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 752-755.
14. Kahramonovich, B. A. (2023). FACTORS OF CREATING A NATIONAL MODEL OF HOUSING POLICY IN UZBEKISTAN. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, *17*, 43-47.
15. Rashidovna, H. M. (2023). TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, *11*(4), 763-772.